

**RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI
FILOLOGIYA KAFEDRASI**

**“YANGI RENESSANS ISTIQBOLIDA FILOLOGIK-
PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA
AMALIY AHAMIYATI”**

**mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

Toshkent-2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI
FILOLOGIYA KAFEDRASI**

**“YANGI RENESSANS ISTIQBOLIDA FILOLOGIK-
PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA
AMALIY AHAMIYATI”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO'PLAMI**

**Toshkent
“INNOVATSIYA-ZIYO”
2024**

UDK:37.013

KBK:74

Ya 61

"Yangi Renessans istiqbolida filologik-pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. To'plam. – Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2024. – 380 b.

Ushbu to'plam Renessans ta'lim universiteti Filologiya kafedrasidan tayyorlangan. To'plam "YANGI RENESSANS ISTIQBOLIDA FILOLOGIK-PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan iborat.

To'plam maqolalar, tezislardan iborat bo'lib, ularda ona tilimizning xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollari belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatishga bag'ishlangan masalalar muhokama qilingan.

Mas'ul muharrir:

M.T. Turdibekov

Renessans ta'lim universiteti Filologiya kafedrasidan mudiri, f.f.d., professor

Taqrizchilar:

L. R. Raupova

Renessans ta'lim universiteti, f.f.d., professor

I. X. Islomov

Renessans ta'lim universiteti, f.f.d., professor

To'plovchilar va nashga tayyorlovchilar:

1. Farida Saidova – Renessans ta'lim universiteti dotsenti;
2. Gulruxsor Ergasheva – Renessans ta'lim universiteti dotsenti;
3. Shahlo Musayeva – Renessans ta'lim universiteti dotsenti;
4. Qahramon Eshboyev – Renessans ta'lim universiteti dotsenti;
5. Davron Oripov – Renessans ta'lim universiteti katta o'qituvchisi;
6. Mirzaxo'ja Jabborov – Renessans ta'lim universiteti katta o'qituvchisi.

Renessans ta'lim universiteti ilmiy kengashi 2024-yil 28-avgustdagi 1-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To'plamdan joy olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihozlariga mualliflarning o'zlari mas'uldir.

ISBN 978-9910-745-97-3

©"INNOVATSIYA-ZIYO", 2024.

(ergashgan) qo'shma gaplarda $[WP_m \quad WP_m]$, shuningdek, mutanosib tarkibli qo'shma gaplarda $[WP_m \quad WP_m]$ bog'lanish tabiati - qismlarda ifodalangan voqea-hodisalar o'rtasidagi munosabat $[WP_m, WP_m]$ allomodeli asosidagi teng tarkibli qo'shma gaplarning bog'lovchisi turida (bog'lovchisiz qo'shma gaplarda)giga nisbatan aniqroq ifodalanadi. [Sayfullayev, Mengliyev Qurbonov, Abuzalov, Boqiyeva, Yunusova, 2009. 331]

Sodda, uyushgan va qo'shma gaplarni farqlovchi asosiy belgi- $[P_m]$ ning markaz va qurshov munosabatining tashkil topishida o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki sodda gapning eng kichik qolipi sanalgan $[WP_m]$ da o'z atrofiga gap kengaytiruvchilaridan iborat yagona markazni shakllantirsa, qo'shma gapda mos ravishda bunday markazlar (shajara daraxti) soni $[P_m]$ soniga ekvivalent ravishda ikkidan boshlab cheksiz davom etishi mumkin:

$$\begin{array}{c} [WP_m^1 + WP_m^2] \\ \downarrow \\ [WP_m^1 + WP_m^2 + WP_m^3] \\ \downarrow \\ [WP_m^1 + WP_m^2 + WP_m^3 + \dots + WP_m^n] \end{array}$$


Teng tarkibli qo'shma gaplarda markaz qurshovlilik munosabatini, aktantlar(gap va so'z kengaytiruvchilari)ning ushbu pog'onaviylikdagi pozitsiyasi shajara daraxtida quyidagicha ifodalanadi:

Chizma №

Teng tarkibli qo'shma gap $[WP_m^1 + WP_m^2]$	$\begin{array}{ccccccc} \text{Obj} & & S & & Adv & & [WP_m] & & Obj \\ \hline S & Attr & & & & & & & \end{array}$
	<i>Baxtnihar kimo 'zichatushunadi: kimgadiruorzular</i>
	$[WP_m]$
	<i>ro'yobidir.</i>

Baxtniharkimo 'zichatushunadi:

kimgadiruorzularro'yobidirtengtarkibliqo'shmagaptarkibiyqismlaridagiso'zlarvaletliginingtahlili quyidagicha:



Shajara daraxti – (*Universal Dependancy*) inson tilining morfosintaktik tahlili uchun asos bo‘lib, bugungi kunga qadar 100 dan ortiq tillarda shajara daraxt ibanklarini yaratishda qo‘llaniladi. So‘zlar orasidagi grammatik munosabatlar turli tillarda subyekt-predikat qurilmalarining morfosintaktik kodlanishini tushuntirish uchun asosiy vosita sifatida ishlatiladi, morfologik xususiyatlar esa so‘zlarning xossalarini ifodalaydi. Bu nazariya tipologik jihatdan xilma-xil tillarning tillararo izchil tahlili uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilgani sababli nafaqat kompyuter yordamida tabiiy tilni tushunishni, balki keng qamrovli lingvistik tadqiqotlarni ham qo‘llab-quvvatlaydi. [Marie-Catherine de Marneffe, Christopher D. Manning, Joakim Nivre, Daniel Zeman, 2021, 47]

Xulosa

Mazkur tadqiqotda tilning lisoniy tizimidagi markaz qurshovlilik munosabatining teng tarkibli qo‘shma gaplarda voqelanishi tahlil qilindi. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarda aktantlarning markaziy bo‘lak- kesim (atov birlik [W] + kesimlik ko‘rsatkichi [Pm])ni to‘ldirishdagi o‘rni; mutlaq hokim bo‘lak-konstuent (kesim)ga bilvosita yoki bevosita bog‘langan aktantlarning nisbiy pog‘onaviy-iyerarxik joylashuvi yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova M. A. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar, Toshkent, 1960. – 14 b.
2. Berdialiyev A. Ergash gapli qo'shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatica. T., 1989.
3. Ne'matov H.G., Sayfullayeva R. Zamonaviy o'zbek tili. II jild. Sintaksis. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. – 240 b.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Abuzalova M., Boqiyeva G., Yunusova Z. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 331 b.
5. Marie-Catherine de Marneffe, Christopher D. Manning, Joakim Nivre, Daniel Zeman. Universal Dependencies. Computational Linguistics: Volume 47, Issue 2, 2021. <https://direct.mit.edu/coli/article/47/2/255/98516/Universal-Dependencies>

**O'ZBEK TILI MUSIQA TERMINLARIDA MILLIY
MENTALLIKNING AKS ETISHI
THE REFLECTION OF NATIONAL MENTALITY IN UZBEK
LANGUAGE MUSICAL TERMS**

ESHBO'TAYEVA Shohsida Toshnazarovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi,
shohsidaeshbotayeva92@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tili musiqa terminlarining leksik-semantik taraqqiyotiga milliy mentallikning ta'siri tadqiq etilgan bo'lib, xalq ongida borliqning lisoniy manzarasi qanday voqelangani va bu jarayonda musiqa terminlarining o'rni tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: mentallik, borliqning lisoniy manzarasi, musiqa termini, milliy-madaniy mazmun, konsept.

Annotation

In this article, the influence of national mentality on the lexical-semantic development of Uzbek language musical terms is studied, how the linguistics landscape of existence is realized in the mind of the people, and the role of musical terms in this process is studied.

Key words: mentality, linguistic landscape of existence, musical term, national-cultural content, concept.

Til xalqning mental tasavvurlari va madaniyati bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, millat mentalitetining asosidir. Milliy mentalitet millatning an‘analari, madaniyati, ijtimoiy tuzilmasi va turmush tarzi asosida shakllanadi.

Mentalitet – jamiyat, millat yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvatidir [Madvaliyev, 2007. 175]. Shuningdek, jamiyat, millat yoki alohida shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an‘analari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, diniy e‘tiqod va irimlarini ham qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

Mentallik – milliy xarakterning intellektual, ma‘naviy va iroda xususiyatlarini o‘zida birlashtiradigan, ona tili kategoriyalari va shakllaridagi dunyoqarashning ko‘rinishi. Mentallikning birligi mazkur madaniyatning konsepti hisoblanadi [Usmanova, 2022. 242]. Insoniyatning borliqni anglash me‘yori sanalgan mentalitet mentallikning yuzaga chiqishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. U odamlarning katta guruhlarini – etnik guruhlar, millatlar yoki ijtimoiy qatlamlarga xos bo‘lgan, borliqni anglash va uni voqelantirishning barqaror usulidir. Mentalitet ajdodlarning kognitiv majmuyi hisoblansa, mentallik uni shakllantiruvchidir. Til tadqiqiga jamiyat, millat, madaniyat, qadriyatlar, inson, uning tafakkuri kabi omillarni ham e‘tiborga olgan holda yondashish natijasida lingvomadaniyatshunoslik fani yuzaga kelgan bo‘lib [Xudoyberganova, 2023. 14], *milliy mentallik* tushunchasi ushbu fanning asosiy terminlaridan sanaladi.

O‘zbek musiqa terminlarida milliy mentallikning voqelanishi, uning semantik xususiyatlari va milliy mentalitetni aks ettiruvchi jihatlarini aniqlash tadqiqotimiz maqsadidir. Tadqiqotimiz obyekti sifatida o‘zbek tili musiqa

terminlari olingan bo'lib, terminda milliy mentallikning aks etishi, til egasining mental xususiyatlari milliy mentalitet bazasi asosida shakllanishi va bu jarayon terminlar shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini antroposentrik nuqtayi nazardan aniqlash tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Mentallik – ona tili birliklari va qonuniyatlari orqali olamni anglashdir. Unda milliy xarakterning aqliy, ma'naviy va irodaviy sifatlari jamlangan bo'ladi. Mentallikning birligi esa madaniy konseptdir [Sayidahmedova, 2021. 68]. Dunyoni qabul qilish usuli bo'lgan mentallik ijtimoiy ong bosqichi bo'lib, insonlarning ma'naviy birlashishi uchun bog'ich vazifasini bajaradi. Xalq o'zligini aks ettirgan mentalitet millatning mentaligi, aqliy boyligi va ruhiy olamini birlashtiruvchi kategoriyadir. Ijtimoiy-madaniy, lisoniy va geografik omillar ta'sirida shakllanuvchi mentalitet o'zida til sathlaridan tashqari olamning konseptual manzarasini ham aks etiradi.

Madaniy konsept – lotin tilidagi *conceptus* “tushuncha” so'zining kalkasidir. Rus tilshunosligida ushbu tushuncha XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan ilmiy muomilaga kiritilgan. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir: bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi. Lingvokulturologiyada konsept mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo'lgan, etnomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligidir. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

Lingvomadaniy konsept – etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik ma'lumotni uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir [Usmanova, 2022. 239]. *Konsept* terminini izohlagan

D.Xudoyberganova uni *mental tuzilma* deya ta'riflaydi [Xudoyberganova, 2013. 13]. Mentallikning birligi sanalgan milliy konsept o'zbek tili musiqa terminlari hosil bo'lishida ham faol ishtirok etgan.

Quyida mental xususiyatlarni o'zida aks ettirgan o'zbek xalqining milliy konsepti asosida shakllangan musiqa terminlari tahlil etildi:

Balabon – qadimiy o'zbek xalq cholg'u asboblariidan. Ko'proq Xorazmda keng tarqalgan [Akbarov, 1997. 26-27]. Ushbu termin xalq tilida *bo'lamon*, *bolabon*, *bolaman* shakllarida ham uchraydi. Terminning variantlari uning nomlanish xususiyatini bildirib, hajm jihatdan karnay va surnaydan *kichik bo'lganligi* haqidagi milliy-madaniy konsept asosida yuzaga kelgan. Shuning uchun ham *bolaman* varianti paydo bo'lgan.

Qayroq – O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida tarqalgan urma musiqa asbobi. Yapaloq, tekis qilib silliqlangan to'rtta qayroq toshdan iborat [Akbarov, 1997. 371]. Eng qadimgi musiqa cholg'ularidan sanalgan ushbu cholg'uning nomlanishi musiqiy ohangning paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan *ikki yassi toshni bir-biriga qayralishi yoki urilishi* haqidagi hatti-harakatning mental jihatdan umumiy ekanligi, har qanday toshni bir-biriga ursa kuy hosil bo'lmasligi, uni yaratish uchun muayyan *ritmik ketma ketlik* bo'lishi lozimligi haqidagi xalqning milliy-madaniy konsepti asosida paydo bo'lgan.

Childirma – yog'och gardishga terini tarang qoplab yasalgan va chertib chalinadigan musiqa asbobi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi chertib chiqariladigan bo'g'iqlik tovushni ifodalovchi *chaldır-chaldır* taqlid so'zidan [Древнетюркский словарь, 1969.137] eski o'zbek tilida *-ma* qo'shimchasi bilan yasalgan [Rahmatullayev, 2000. 425]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu cholg'u nomini ifodalovchi fors-tojik tilidan o'zlashgan *doyira* termini faol sanaladi. Bir tushunchani ifodalovchi ikki termin ikki xalqning mental jihatdan predmetning turli xususiyatlariga e'tibor qaratganligini ifodalaydi. Jumladan, fors-tojik xalqi predmetni *shakliga qarab* nomlagan bo'lsa, o'zbek xalqi uni *xususiyati, ijro jarayoni va bajaradigan vazifasidan* kelib chiqib nomlagan. Shuningdek, ushbu cholg'u turkiy xalqlarning eng qadimgi cholg'ularidan sanalib, *tangrikanlik*

[Sodiqov, 2022. 83] dinida shomonga Yerlik (yer osti saltanatining hukmdori) bergan va ushbu cholg'uga osmon hamda yer ilohlari bilan muloqot o'rnatish vositasi deb qaralgan [Bo'ronov, 2017. 77].

Tahlillar natijasida o'zbek xalqining mental tuzlimasi, milliy-madaniy konsepti asosida shakllangan *childirma* terminini adabiy tildagi o'quv va izohli lug'atlarimizga qaytarish lozim degan xulosaga kelindi.

Qo'shiq – qadimgi turkiy tilda “birlashtirish” ma'nosini anglatuvchi qosh – fe'liga -(u)g' qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan [Rahmatullayev, 2000. 591]. Ushbu terminning lug'aviy ma'nosi sifatida Sh.Rahmatullayev dastlab “she'r”, “qasida” ma'nosini anglatgan bo'lsa, keyinchalik “ashula qilib aytiladigan she'r”, “ashula” manosini ifodalaganligi haqida ma'lumot beradi. Termin yasalishiga asos bo'lgan *birlashtirish* semasidan kelib chiqib, kuy va she'r birgalikda yaralishi hamda qo'shilib ijro etilishi haqidagi xalqning mental xulosasi asosida ushbu termin shakllangan.

Jahon tilshunosligida antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan musiqa va tilning umumiy xususiyatlari sifatida ularning birga yaralishi ya'ni, inson nutqi ham musiqa kabi muayyan ritm, tembr va emotsional bo'yoqqa ega ekanligi haqidagi qarashlar [Kiviy, 2007] XXI asrga kelibgina aytilayotgan bo'lsa, turkiy xalqlar qadimgi turkiy til davridayoq bu ikki tushunchani birgalikda yaralishiga e'tibor qaratganligi *qo'shiq* termini tahlili orqali aniqlandi.

Qo'shnay – qadimgi o'zbek xalq cholg'u asboblariidan. Ikki qamish naychadan iborat bo'lib, ularga tovush chiqaradigan til o'rnatiladi. Qamishni chalish uchun ikkita naychaga barobar puflanadi va har ikkala naychada yondosh joylashgan yettita teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi [Akbarov, 1987.435]. Ushbu termin ikki tushuncha yoki predmetning qo'shilib ijro etilish jarayonidan kelib chiqib shakllangan xalqning milliy-madaniy konsepti asosida yasalgan.

Dovul – doyira shaklida, har ikki tomoniga teri qoplangan qadimiy o'zbek cholg'u asbobi. Dovulning gardishiga yasalgan dastani chap qo'l bilan ushlab, tayoq bilan urib chalinadi [Akbarov, 1997. 95]. Termin qadimgi turkiy tildagi

“g‘arbdan esgan shamol” ma’nosini anglatgan *dabur*[Rahmatullayev,2000.93] so‘zining leksik va semantik ma’no taraqqiyoti natijasida shakllangan. Bo‘ron bo‘lganda chiqadigan *kuchli ovoz, vayronlik keltiruvchi ovoz*[Madvaliyev, 2021. 912], *vahima uyg‘otuvchi ovoz* assotsiatsiyalari xalqning mental xususiyati va milliy-madaniy konsepti asosida, asosan, harbiy yurishlarda, ov jarayonlarida odamlar yoki hayvonlarda vahima uyg‘otuvchi kuchli ovoz chiqaradigan cholg‘uga nisbatan qo‘llangan.

Shuningdek, qadimgi oltoy tili tarkibiga kirgan turkiy xalqlarning tangrikanlik diniga oid qarashlarida *nog‘ora, daf, chanqovuz* va boshqa cholg‘ular yordamida inson tanasidagi ruhlar bilan so‘zlashish yoki yovuz ruhlarni tanadan quvib chiqarish mumkinligi haqidagi mafkura mavjud bo‘lgan [Bo‘ronov, 2017. 81]. Shunday diniy tasavvur asosida hosil bo‘lgan milliy-madaniy konsept asosida *dovul* leksemasi hosil bo‘lgan.

O‘lan – xalq ijodi janri bo‘lgan qo‘shiqning bir turi. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, asosan, ayollar ijrosida childirma jo‘rligida kuylanadi. Beshik to‘y o‘lani, nikoh to‘y o‘lani kabi turlari mavjud [Umarov., Bekmurodov, 2015. 320]. Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi *namlik* ma’nosini anglatgan *öl*[Rahmatullayev, 2000. 473.] asosidan yasalgan bo‘lib, eski turkiy til davrida *ölän*[Umarov., Bekmurodov, 2015. 320]shaklida bo‘lgan. Ushbu janrda, asosan, kuylovchining dardlari, orzu-umidlari, iztiroblari kuylangani, ya’ni *inson ko‘ziga nam keltiruvchi dardli ohang* yetakchi ekanligidan kelib chiqib, xalq ongida paydo bo‘lgan mentallik asosida urf-odat va marosimlarda kuylanadigan ijro haqidagi milliy-madaniy konsept asosida hosil bo‘lgan.

Terma – o‘zbek folklorining janrlaridan bo‘lib, aytiladigan ashula so‘zining har bir bandi turlicha mazmundan iborat bo‘ladi [Akbarov, 1987.348]. Tinglovchidan kelib chiqib, turli mavzularda terib-terib aytiladigan musiqiy janrga nisbatan qo‘llanuvchi ushbu termin xalqning milliy-madaniy urf-odat va an‘analarini assotsiatsiyalantirishi bilan lingvomadaniy ahamiyatga ega.

Lazgi – Xorazm xalq kuyi va raqsi [Umarov., Bekmurodov, 2015. 84]. San’atshunos G.Matyobubovning ta’kidlashicha ushbu kuy va raqsning paydo

bo'lganiga uch ming yildan oshdi [Matyoqubova, 1993. 64]. Raqs tadqiqotchisi Roza Verko ta'rif bilan aytganda: "Lazgi – Xorazmni ko'rishdir. Qadimgi "lazgi" so'zining ma'nosi "qaltirash" demakdir [Verko, 2020]. Ushbu termin etimologiyasiga oid qarashlarda insonning loydan yaralishi va unga kuy orqali jon ato etilishi haqidagi afsonaviy va diniy qarashlar, shuningdek, uning: totemizm – "Masxaraboz lazgisi", animizm – "Qayroq lazgisi", zardushtiylik – "Olov lazgisi", afsonalardan kelib chiqqan "Dutor" va "Surnay" lazgilari, fantaziya mahsuli bo'lgan "Xiva lazgisi", "Xorazm lazgisi", shart-sharoit taqazosiga ko'ra paydo bo'lgan "O'g'lon bola lazgisi", "Garmon lazgisi", elatlar aralashuvidan kelib chiqqan Xorazm eroniylari "Lazgisi" [Saparbayev, 2022. 179-180] kabi turlari ham xalqning tosh asridan beri shakllanib, rivojlanib kelgan milliy mental xususiyatlari negizida yaralgan, o'zida milliy-madaniy konseptni hosil qilgan termin sanaladi. Tadqiqotda termin etimologiyasini qadimgi fors-tojik tilidan o'zlashgan *larza* [Rahmatullayev, 2009. 126-127] so'zining "*larzidon*" – *titra, silkin* ma'nolaridan hosil bo'lgan degan xulosaga kelindi. Chunki eng qadimgi lazgi kuyining asosi qayroq toshlarning bir-biriga titratib tegilishi va surnayning silkitma ohangi asosida hosil bo'lgan. Raqs termini sifatida inson tanasining kuyga mos titragan holatda silkinishini ifodalaydi.

Xalfa – Xorazmda *shoira, sozanda* va *ashulachi xotin-qizlar* shu nom bilan ataladi [Akbarov, 1997. 330]. Ushbu termin arabcha so'z bo'lib, uning ma'nosi shariat aqidalarini yaxshi biluvchi, o'qimishli kishi tarzida shakllangan [Madvaliyev va boshqalar, 2021. 11]. Ayni shu ma'no asosida Xorazmda savodxon, gapga chechan, ayni paytda xonandalik qobilyatiga ega ayollar tushuniladi. Islomgacha bo'lgan davrdagi musiqiy va madaniy taraqqiyotni aks ettirgan ushbu termin mazmuniga mos *qalpa* so'zi "Avesto"ni o'qib, ularni xotin-qizlar orasida targ'ib qilgan, shuningdek, shoirlar asarlari, xalq dostonlarini kuyga solib ayta oladigan xotin-qizlar ma'nosini ifodalagan. Xalqning milliy-madaniy taraqqiyotini o'z semantik mundarijasida ifodalagan ushbu termin bugungi kunda badihago'y, soz chalib, xalq dostonlari va qo'shiqlarini marosimlarda kuylovchi

<i>J.K.Jurakulov</i> Ta'limda jamiyat va inson ma'naviyati tushunchalarining tahlili.....	199
<i>G.F.Huязова</i> Diskurs tahlilida zamonaviy yandashuv va konsepsiyalarning o'rni.....	202
<i>N.I.Khursanov</i> A sociopragmatic description of the discourse of english dramas.....	210
<i>N.K.Musayeva</i> O'zbek bolalar kvazidialogik nutqida deysisning ifodalanishi.....	218
<i>A.Ruziyev</i> Xususiy diskursning sotsioprogmatik xususiyatlari.....	226
<i>Д.Ў.Юлдошева</i> Паремаларнинг ўзбек ва рус тилларида баъзи хусусиятлари.....	232
<i>O.O.Parpiyev</i> Fikrni yozma ifodalashda pragmatik yondashuv.....	239
<i>Z.S.Kenjayeve</i> O'zbek tili morfemalarida geterogenlik nisbatining voqelanishi.....	247
<i>A.SH.Qurbonmurodova</i> Darajalanish qonuniyatida ravishning leksik-semantik xususiyatlari.....	259
<i>N.A.Mustafayeva</i> Sharof Boshbekov asarlarida yordamchi so'z turkumlarining pragmatik voqelanishi.....	265
<i>F.A.Ashurova</i> Qishloq xo'jaligi sohasida maxsus qomusiy lug'atchilik.....	278
<i>U.Sh.Egamov</i> Usmon azim she'riyatida mukarrar takrori.....	286
<i>Sh. Islomova</i> Qishloq xo'jaligi terminlarining "o'zbek tilining izohli lug'ati"da sheva pometasi ostida berilishi.....	291
<i>N.U.Qodirova</i> Hoji muinning milliy til muammolariga munosabati.....	295
<i>U.A.Usmonova</i> Leksik arxaizmlarning leksikografik talqini.....	302
<i>I.B.Jamoliddinova</i> Antropotsentrik tilshunoslikda konsept masalasi.....	309